



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI QARORI

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2023 - yil 2 - fevral

VI-44-20-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash to‘g‘risida

Viloyatda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlilagini ta’minalashga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli hamda 2022-yil 28-dekabrdagi SQ-682-IV-sonli qarorlari ijrosini ta’minalash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi SQ-682-IV-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini Sirdaryo viloyatida 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimi o‘rinbosari N.Tojibayeva hamda viloyat hokimining tegishli o‘rinbosarlari, korxona va tashkilotlar, tuman va shahar hokimlariga:

viloyatda gender tenglikni ta’minalash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya etilishini

ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirib borishni tashkil etish;

ayollarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan choralarini belgilash va samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda keng qamrovli targ'ibot ishlarini tashkil etish;

qishloq joylarda xotin-qizlar uchun munosib ish o'rinalarini yaratish, bir turdag'i mehnat uchun xotin-qizlar va erkaklarning mehnatiga teng haq to'lash, ishsiz xotin-qizlarni o'zini o'zi band qilish orqali bandligini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'rish;

tuman va shaharlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning kredit olishga, yer va mulkka egalik qilishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish hamda ular bilan o'zaro munosabatlar madaniyatini yuksaltirish bo'yicha mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha idora va tashkilotlarda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

jamiyatda tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabab hamda shart-sharoitlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, bu borada jamoatchilik nazoratini olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatlariga o'zлari saylangan saylov okrug hududlarida istiqomat qilayotgan aholi orasida gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, siyosiy faolligini rag'batlantirishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazish tavsiya etilsin.

5. Viloyat hokimi o'rindbosari N.Tojibayevaga:

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini viloyatda 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning bajarilishi holati to'g'risida har chorakda Xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borsin.

6. Viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxanov) viloyat hokimligi axborot xizmati (Z.Mirraximov), "Yangi Sirdaryo" va "Новая Сырдарья" gazetalari tahririyati bosh muharriri (M.Ismoilov)ga:

qarorlar ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash viloyat hokimining o'rribbosari N.Tojibayevaga, nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi S.Elmurodov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi o'rribbosari



M.Xodjiyev

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2023 yil 2 fevraldag'i
VI-44-20-9-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar

DASTURI

Tur	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Ijro uchun ma'sullar
Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash				
1.	Xotin-qizlarning siyosiy faolligini rag'batlantirishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish.	1. Saylov jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko'rish hamda saylovarning barcha bosqichida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha alohida dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Siyosiy partiyalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni lavozimlarga tavsija etishga qaratilgan "ijtimoiy lift" tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. 3. Jamiyatda "Ayl siyosatchi" obrazi to'g'risida ijobji fikrini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini olib borish. 4. Vakillik organlarda faoliyat olib borayotgan deputat ayollarning ijobji tajribalarini ommalashtirish. 5. Siyosatchi ayollar haqida media mahsulotlar tayyorlash va muloqot platformalarini yo'lga qo'yish.	dastur ishlab chiqish yanvar oyida, amalga oshirish yil davomida mart	Siyosiy partiyalar (kelishuv asosida), Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiya boshqarmasi, Viloyat teleradiokompaniyasi
2.	Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ulushini oshirishda siyosiy partiyalarning ishtirokini yanada kengaytirish.	1. Siyosiy partiyalarga a'zo bo'lgan faol xotin-qizlarning ro'yxatini shakllantirish. 2. Davlat tashkilotlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish (Siyosiy partiyalarga davlat boshqaruvi organlari rahbarligiga nomzod ko'rsatish va boshqalar) bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish. 3. O'rganish natijalari bo'yicha takliflarni Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha viloyat komisiyasiga kiritish. 4. Jamiyatda xotin-qizlarning siyosiy faolligini rag'batlantirishga qaratilgan siyosiy partiyalarning gender strategiyasini ishlab chiqish. 5. "Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishda siyosiy partiyalarning o'mni va roli" mavzusida hududiy anjumanini tashkil etish.	aprel may iyun avgust oktabr	Siyosiy partiyalar (kelishuv asosida), Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, tuman va shahar hokimliklari
Davlat xizmatii soxasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash				
3.	Milliy kadrlar zaxirasida xotin-qizlar ulushini 30 foizga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan xotin-qizlar ulushini boshqarma va tashkilotlar hamda hududlar kesimida tahsil qilish. 2. Tahsil natijalari asosida Milliy kadrlar zaxirasida salohiyatlari, faol xotin-qizlar ulushini 30 foizga yetkazish choralarini ko'rish. 3. Rahbarlik lavozimlariga Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirishda ayol nomzodlarni inobatga olish tizimini joriy etish.	aprel sentabr doimiy	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
4.	Xotin-qizlar uchun davlat xizmatiga kirish jozibadorligi-ni va ish rejimi qilayligini oshirish.	1. Hududlarda quyidagilarni nazarda tutuvchi tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish: xotin-qizlar uchun moslashuvchan ish rejimlarini tashkil etish; davlat xizmatchilarini faoliyatini masofaviy tashkil etish hamda uy sharoitida masofaviy ishlashga muhitoj bo'lgan salohiyatlari xotin-qizlarni jaib etish; homiladorlik va bola parvarishida bo'lgan ayol xodimlar uchun masofaviy mehnat faoliyatini ko'rsatish imkoniyatini yaratish. 2. O'tказilgan tajriba sinov natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash.	yil davomida may iyul	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
5.	Davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarini hal qilishda va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan qarolarni qabul qilish hamda ularni amalga oshirishda xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish.	1. Mahalliy ijro hokimiyati organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash holatini o'rganish. 2. Ilg'or xorijiy mammalatlar tajribasi asosida davlat organlari va tashkilotlarida lavozimda ko'tarilish masalalari bo'yicha teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan gender tenglikni ta'minlash mezonlarini ishlab chiqish. 3. Kvotalar va ishga qabul qilish talabalarini ko'rib chiqish, ayollar uchun liderlik va yetakchilik salohiyatini oshirish bo'yicha ichki dasturlarni yo'lga qo'yish orqali davlat xizmatchilarini orasida ayollar ulushini oshirish.	iyun avgust yil davomida	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari

Tur	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Ijro uchun ma'sullar
Ta'lim, ilm-fan, sport hamda sog'liqni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash				
6.	Xotin-qizlar va erkaklarning butun umr davomida o'qish imkoniyatlarni rag'batlantrishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Bugungi kunda globallashayotgan dunyoda kattalar uchun ta'limga o'qish zarurligidan kelib chiqib, kattalar uchun professional bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha dastur va grafiklarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish. 2. Xotin-qizlar va erkaklarning butun umr davomida o'qishning afzalliklari to'g'risida aholining xabardorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar asosida ilmiy-uslubiy manbalarni yaratish va targ'ib etish.	II va III choraklar davomida	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash				
7.	Hududlarda ayniqsa qishloq joylarda xotin-qizlarni servis va xizmat ko'rsatish axborot texnologiyalari, dasturlash va qishloq xo'jaligi sohalarda o'qitish hamda ushbu sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish.	1. Monomarkazlar, kasb-hunarga o'qitish markazlari va maskanlarda o'qish istagi bo'lgan fuqarolarga mahallada tadbirdorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari tomonidan tavsyanomalar berish. 2. Ishsiz fuqarolarni amaldagi mexanizmlardan foydalangan holda o'qitish ishlarini tashkil etish. 3. O'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan xotin-qizlarning bandligiga ko'maklashish, shu jumladan, ishga joylashtirish, o'zini o'zi band qilishga ko'maklashish, asbob-uskuna uchun subsidiya ajratish.	iyun doimiy doimiy	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
8.	Imkoniyati cheklangan nogironligi bo'lgan xotin-qizlar va erkaklarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash, kasbga o'qitish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar yuzasidan targ'ibot tadbirdorlari o'tkazish. 2. Nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot uchun xizmatlarni byudjet xaridi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga-oshirish.	aprel sentabr	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
Tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash				
9.	Jamiyatda tazyiq va zo'ravonlikni sodir etilishiga olib keladigan sabab shart-sharoitlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amalii hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash.	1. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabab shart-sharoitlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amalii hamda fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash. 2. Jamiyatda tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga qarshi murosasizlik muhitini shakkllantirish, bu borada jamoatchilik nazoratini olib borish.	yil davomida	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari, fuqarolik jamiyatni institutlari
Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiysi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash				
10.	Oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan xotin-qizlar va erkaklar uchun maslahatlar berish tizimini yanada takomillashtirish.	"Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari"ni tubdan takomillashtirish, ularni oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash maskanlariga aylantirish choralarini ko'rish.	avgust	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
Gender jihatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish va byudjetlashtirish				
11.	Byudjetlarni shakkllantirishda ayollarning ishtirokini oshirish.	1. Byudjet siyosatining erkaklar va ayollarga ta'sirini kuzatuvchi mustaqil tuzilmalar faoliyati bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va o'rganish natijalarini bo'yicha takliflar tayyorlash. 2. Mahalliy byudjetlarni gender tahlil vositalarini keng joriy etish.	iyun avgust	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari
12.	Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlardan gender tenglikka erishishni hamda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash	1. Ushbu yo'nalishda Davlat byudjeti, shu jumladan mahalliy byudjet mablag'alari ajratilishini tahlil qilish. 2. Monitoring natijalarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.	har yil yakunlariga ko'ra yanvar	Moliya bosh boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
Gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish				
13.	Tuman va shaharlar kesimida genderga oid vaziyatni tahlil qilish hamda uning monitoringini yuritish.	1. Mutasaddi idoralar, tashkilotlar, muassasalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyatni institutlari jinslar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar yuritishini tashkil etish va jamlangan ma'lumotlarni statistika organlariga taqdim etib borish. 2. Gender statistikasiga oid ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirgan holda statistika yuritishini ta'minlash hamda yillik ma'lumotlarni e'lon qilib borish. 3. Xotin-qizlar va erkaklarning norasmiy mehnat bozori sektoridagi, shuningdek hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtiroi ularning davlat tomonidan kafolatlangan imkoniyatlardan foydalish holati yuzasidan statistik ma'lumotlarni tizimli yuritish.	har yil yakunlari bo'yicha doimiy doimiy	Viloyat mutasaddi boshqarmalar va tashkilotlar, tuman va shahar hokimliklari